# Mening ishxonam — ommaviy oferta

Nov 3, 2026 · @Shoxruh

**«Mening ishxonam» platformasidan foydalanish bo'yicha xizmat ko'rsatish shartnomasi**

Nukus shahri. Tahrir sanasi: 2026-yil 5-noyabr.

Mazkur ommaviy oferta «Shox-Muxandis» mas'uliyati cheklangan jamiyati (STIR 312108030, keyingi o'rinlarda — Ijrochi) tomonidan direktor Saburov Shoxruh Azamat o'g'li timsolida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga (keyingi o'rinlarda — Buyurtmachi) «Mening ishxonam» platformasidan foydalanish bo'yicha xizmat ko'rsatish shartnomasini (keyingi o'rinlarda — Shartnoma) tuzish yuzasidan rasmiy taklif hisoblanadi.

## 1. Atamalar

**1.1. Platforma** — Ijrochiga tegishli bo'lgan, Meningishxonam.uz manzilida joylashgan «Mening ishxonam» dasturiy ta'minoti: xodimlar davomatini qayd etish, mijozlarni navbat bilan qabul qilish, topshiriqlar berish va xizmat sifatini baholash vositalari.

**1.2. Buyurtmachi** — Platformadan o'z faoliyatida foydalanish uchun Ofertani aktsept qilgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor.

**1.3. Rahbar** — Buyurtmachi tomonidan Platformada Buyurtmachi nomidan harakat qilish uchun belgilangan va ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxs.

**1.4. Xodim** — Rahbar tomonidan Platformaga qo'shilgan Buyurtmachining xodimi.

**1.5. Mijoz** — Buyurtmachiga xizmat olish uchun murojaat qilgan va Platformada ro'yxatga olingan jismoniy shaxs.

**1.6. Tarif** — Platformadan foydalanish uchun to'lov miqdori va davri (oylik, 6 oylik yoki yillik).

**1.7. Obuna davri** — Buyurtmachi to'lagan Tarif amal qiladigan muddat.

**1.8. SMS xabar** — Platforma orqali Mijozga yuboriladigan navbat raqami yoki xizmatni baholash havolasi bo'lgan qisqa xabar.

**1.9. Shaxsiy kabinet** — Platformaning Rahbar va Xodimlar telefon raqami va parol orqali kiradigan qismi.

## 2. Shartnoma predmeti

**2.1.** Ijrochi Buyurtmachiga Platformadan internet orqali foydalanish imkoniyatini taqdim etadi, Buyurtmachi esa ushbu xizmat uchun Shartnoma shartlariga muvofiq haq to'laydi.

**2.2.** Platforma doirasida Buyurtmachiga quyidagi imkoniyatlar beriladi:

- Xodimlarni qo'shish va chiqarish, ularning ish kompyuterlarini tasdiqlash;
- Xodimlarning ishga kelish va ketish vaqtini qayd etish;
- Mijozlarni ro'yxatga olish, mas'ul Xodimga yo'naltirish va navbat raqamini berish;
- Xodimlarga topshiriqlar berish va ularni baholash;
- Mijozlardan SMS havola orqali xizmat sifati bo'yicha baho olish;
- Xodimlar reytingi, davomat va mijozlar bo'yicha hisobotlar.

**2.3.** Platforma «qanday bo'lsa, shunday» tamoyili asosida taqdim etiladi. Ijrochi Platformani takomillashtirib borish, yangi imkoniyatlar qo'shish va Buyurtmachi ishiga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlar kiritish huquqiga ega.

**2.4.** Platformaga oid barcha intellektual mulk huquqlari Ijrochiga tegishli. Shartnoma Buyurtmachiga Platformadan faqat o'z faoliyatida foydalanish huquqini beradi; Platformani nusxalash, sotish yoki uchinchi shaxslarga berish taqiqlanadi.

## 3. Aktsept va shartnomaning tuzilishi

**3.1.** Quyidagi harakatlardan birinchisi bajarilgan paytdan boshlab Buyurtmachi Oferta shartlarini to'liq va so'zsiz qabul qilgan (aktsept qilgan) hisoblanadi:

- Rahbarning Platformada ro'yxatdan o'tishi — Ijrochi yuborgan taklif havolasi orqali yoki Platformaning bosh sahifasida (Meningishxonam.uz) mustaqil ravishda — va Oferta shartlarini qabul qilganini belgilashi;
- Ijrochi taqdim etgan hisob-faktura bo'yicha to'lovni amalga oshirish.

**3.2.** Aktsept qilingan paytdan Shartnoma yozma shaklda tuzilgan hisoblanadi va qog'ozda imzolanishini talab qilmaydi.

**3.3.** Buyurtmachining talabi bilan Taraflar Shartnomani qog'oz yoki elektron hujjat shaklida alohida imzolashi mumkin; bunda imzolangan matn Ofertaning tegishli tahririga mos bo'ladi.

**3.4.** Ofertani aktsept qilish bilan Buyurtmachi Rahbar Buyurtmachi nomidan Platformada harakat qilish vakolatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

# 4. Bepul sinov davri

**4.1.** Platformada birinchi marta ro'yxatdan o'tgan Buyurtmachiga ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kunlik bepul sinov davri beriladi.

**4.2.** Sinov davrida Platformaning barcha imkoniyatlari to'liq ishlaydi. Bunda Mijozlarga yuborilgan SMS xabarlar uchun to'lov ushbu Shartnomaning 5.4-bandiga muvofiq alohida to'lanadi.

**4.3.** Sinov davri tugagach, Buyurtmachi Platformadan foydalanishni davom ettirish uchun Tariflardan birini tanlab, to'lovni amalga oshiradi. To'lov qilinmasa, Shartnomaning 6-bo'limi qo'llaniladi.

**4.4.** Sinov davri bir Buyurtmachiga (bir STIR bo'yicha) faqat bir marta beriladi.

# 5. Tariflar va to'lov tartibi

**5.1.** Platformadan foydalanish narxi:

| Tarif | Obuna davri | Narx |
|---|---|---|
| Oylik | 1 oy | 250 000 so'm |
| 6 oylik | 6 oy | 1 200 000 so'm |
| Yillik | 12 oy | 2 200 000 so'm |

Narx Buyurtmachidagi Xodimlar soniga bog'liq emas. Narxlar Ijrochining soliq rejimiga muvofiq QQSsiz ko'rsatilgan.

**5.2.** To'lov 100% oldindan, Ijrochi taqdim etgan hisob-faktura asosida bank o'tkazmasi yoki Ijrochi qabul qiladigan boshqa usul (Click, Payme va hokazo) orqali amalga oshiriladi.

**5.3.** To'lov Ijrochining hisob raqamiga kelib tushgan kundan boshlab Obuna davri uzaytiriladi: agar joriy davr hali tugamagan bo'lsa — uning tugash sanasidan, tugagan bo'lsa — to'lov kiritilgan sanadan boshlab.

**5.4.** Mijozlarga yuborilgan SMS xabarlar Tarifga kirmaydi va alohida to'lanadi: **1 (bitta) SMS xabar uchun 300 so'm**. Hisob har oy oxirida Platformada qayd etilgan SMS xabarlar soni bo'yicha tuziladi va Buyurtmachi uni keyingi oyning 10-kunigacha to'laydi. Joriy oydagi SMS soni Rahbarning Shaxsiy kabinetida «SMS hisobi» bo'limida ko'rinib turadi.

**5.5.** Rahbar va Xodimlarni ro'yxatdan o'tkazish, Platformaga kirish kodlari va to'lov eslatmalari uchun yuboriladigan tizim SMS xabarlari Tarif ichida bo'lib, alohida to'lanmaydi.

**5.6.** Ijrochi Tariflar narxini o‘zgartirish huquqiga ega. Yangi narx Platformada e‘lon qilinganidan kamida 30 kalendar kun o‘tgach kuchga kiradi va allaqachon to‘langan Obuna davriga ta‘sir qilmaydi.

**5.7.** To‘langan summa Buyurtmachi o‘z tashabbusi bilan Platformadan foydalanishni to‘xtatganda qaytarilmaydi, Ijrochi aybi bilan xizmat ko‘rsatilmagan hollar bundan mustasno.

## 6. Kirishni cheklash va bloklash

**6.1.** Obuna davri (yoki sinov davri) tugagan kundan keyin 3 (uch) kalendar kun davomida Buyurtmachiga ogohlantirish beriladi: Rahbarning Shaxsiy kabinetida xabar ko‘rsatiladi va Rahbar telefoniga har kuni SMS eslatma yuboriladi. Bu davrda Platforma to‘liq ishlaydi.

**6.2.** Ogohlantirish davri tugaguncha to‘lov kelib tushmasa, Platformaga kirish avtomatik ravishda cheklanadi (bloklanadi).

**6.3.** Ijrochi Buyurtmachi quyidagilarni sodir etganda kirishni ogohlantirishsiz cheklash huquqiga ega: Platformadan qonunga zid maqsadlarda foydalanish, Platformaning ishlashiga zarar yetkazishga urinish, 5.4-band bo‘yicha SMS to‘lovini 30 kundan ortiq kechiktirish.

**6.4.** Bloklanganda Buyurtmachining barcha ma‘lumotlari o‘chirilmaydi va saqlanadi. To‘lov kelib tushgan zahoti kirish to‘liq tiklanadi.

**6.5.** Bloklangan davr uchun to‘lov olinmaydi.

## 7. Taraflarning huquq va majburiyatlari

**7.1. Ijrochi majburiyatlari:**

- Platformaning sutka davomida uzluksiz ishlashini ta‘minlash (rejali texnik ishlar bundan mustasno; ular haqida Rahbar kamida 24 soat oldin xabardor qilinadi);
- Buyurtmachi ma‘lumotlarini O‘zbekiston Respublikasi hududidagi serverlarda saqlash va har kuni zaxira nusxasini olish;
- Buyurtmachi ma‘lumotlarini uchinchi shaxslarga bermaslik (qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);
- Rahbarning Platforma bo‘yicha murojaatlariga ish kunlarida 1 (bir) ish kuni ichida javob berish;
- to‘lov kelib tushgach, Obuna davrini o‘z vaqtida uzaytirish va hisob-fakturalarni taqdim etish.

**7.2. Ijrochi huquqlari:**

- Shartnomaning 6-bo'limida nazarda tutilgan hollarda kirishni cheklash;
- Platformani yangilash va takomillashtirish;
- Buyurtmachi nomini Platforma foydalanuvchilari ro'yxatida faqat uning yozma roziligi bilan ko'rsatish.

**7.3. Buyurtmachi majburiyatlari:**

- to'lovlarni Shartnomada belgilangan muddatlarda amalga oshirish;
- Rahbar va Xodimlarning parollarini sir saqlash; Rahbar ishdan bo'shaganda yoki Xodim chiqarilganda uni Platformadan o'z vaqtida chiqarish;
- Xodimlar va Mijozlardan ularning shaxsga doir ma'lumotlarini Platformada ishlov berish uchun qonunda belgilangan tartibda rozilik olish (8-bo'lim);
- Platformaga faqat haqqoniy ma'lumotlarni kiritish va Platformadan qonunga zid maqsadlarda foydalanmaslik.

**7.4. Buyurtmachi huquqlari:**

- Platformaning barcha imkoniyatlaridan Obuna davri davomida foydalanish;
- o'z ma'lumotlarini (davomat, mijozlar) Platformadan hisobot fayllari ko'rinishida yuklab olish;
- Platformadan foydalanishni istalgan vaqtda to'xtatish.

## 8. Shaxsga doir ma'lumotlar

**8.1.** Platformada Xodimlar (F.I.Sh., telefon raqami, lavozimi, ish vaqti, ishga kelish va ketish vaqti, ish kompyuterining nomi va IP manzili) hamda Mijozlar (ismi, telefon raqami, murojaat mavzusi, xizmat vaqti, qoldirgan bahosi va izohi) to'g'risidagi ma'lumotlarga ishlov beriladi.

**8.2.** Ushbu ma'lumotlarga nisbatan Buyurtmachi shaxsga doir ma'lumotlar bazasining mulkdori, Ijrochi esa Buyurtmachining topshirig'iga ko'ra ularga ishlov beruvchi shaxs hisoblanadi. Ijrochi ushbu ma'lumotlardan faqat Platforma xizmatlarini ko'rsatish maqsadida foydalanadi.

**8.3.** Buyurtmachi Xodimlardan yozma (shu jumladan elektron) va Mijozlardan og'zaki yoki yozma rozilik olish uchun javobgar. Ijrochi buning uchun Platformada rozilik matni namunalarini taqdim etadi.

**8.4.** Ijrochi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi hududidagi serverlarda saqlaydi va ularni ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun quyidagi choralarni ko'radi: shifrlangan ulanish (HTTPS), parollarni xeshlangan ko'rinishda saqlash, kirish huquqlarini rollar bo'yicha cheklash, kunlik zaxira nusxalar, harakatlar jurnalini yuritish.

**8.5.** Mijozga SMS xabar faqat xizmat bilan bog‘liq maqsadda (navbat raqami va xizmatni baholash) yuboriladi. Reklama xabarlari yuborilmaydi.

**8.6.** Shartnoma bekor qilingandan so‘ng Buyurtmachi 30 kalendar kun ichida o‘z ma‘lumotlarini yuklab olishi mumkin. Shundan keyin Buyurtmachining yozma so‘roviga ko‘ra yoki qonunda belgilangan saqlash muddati tugagach, ma‘lumotlar yo‘q qilinadi.

## 9. Javobgarlik, fors-major, nizolar

**9.1.** Taraflar Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladi.

**9.2.** Ijrochining Shartnoma bo‘yicha umumiy javobgarligi Buyurtmachi oxirgi Obuna davri uchun to‘lagan summa bilan cheklanadi. Ijrochi boy berilgan foyda va bilvosita zararlar uchun javobgar emas.

**9.3.** Ijrochi quyidagilar uchun javobgar emas: Buyurtmachi yoki uning internet provayderi tomonidagi uzilishlar; SMS operatorlari va aloqa tarmoqlaridagi nosozliklar; Buyurtmachi, Rahbar yoki Xodimlar tomonidan kiritilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligi; parolning Buyurtmachi aybi bilan uchinchi shaxslarga ma‘lum bo‘lishi.

**9.4.** To‘lov 5.4-bandda belgilangan muddatda amalga oshirilmaganda, Ijrochi har bir kechiktirilgan kun uchun to‘lanmagan summaning 0,1 foizi, lekin jami 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya talab qilishga haqli.

**9.5. Fors-major.** Taraflar yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari (tabiiy ofatlar, urush, davlat organlarining qarorlari, keng ko‘lamli elektr yoki aloqa uzilishlari va hokazo) natijasida majburiyatlarini bajara olmaganlik uchun javobgar emas. Bunday holat yuz bergan Taraf ikkinchi Tarafni 5 kalendar kun ichida xabardor qiladi.

**9.6. Nizolar.** Nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Talabnomaga javob berish muddati — 10 kalendar kun. Kelishuvga erishilmasa, nizo O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Ijrochi joylashgan joydagi vakolatli sudda ko‘rib chiqiladi.

## 10. Amal qilish muddati, o'zgartirish va bekor qilish

**10.1.** Shartnoma aktsept (tasdiqlangan, imzolangan) qilingan paytdan kuchga kiradi va Taraflardan biri uni bekor qilgunga qadar amal qiladi.

**10.2.** Ijrochi Oferta matnini o‘zgartirish huquqiga ega. O‘zgarishlar Platformada yangi tahrir e‘lon qilinganidan kamida 10 kalendar kun o‘tgach kuchga kiradi (narx o‘zgarishi — 5.6-bandga muvofiq 30 kun). Buyurtmachi o‘zgarishlarga rozi bo‘lmasa, Shartnomani 10.3-bandga muvofiq bekor qilishi mumkin.

**10.3.** Buyurtmachi Shartnomani istalgan vaqtda Ijrochini kamida 10 kalendar kun oldin yozma (elektron pochta orqali ham) xabardor qilib bekor qilishi mumkin. Bunda 5.7-band qo'llaniladi va SMS xabarlar bo'yicha qarzdorlik to'liq to'lanadi.

**10.4.** Ijrochi Shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin: Buyurtmachi 6.3-bandda ko'rsatilgan qoidabuzarlikni sodir etganda yoki kirish bloklangan holatda 90 kalendar kundan ortiq to'lov amalga oshirilmaganda. Ijrochi bu haqda Rahbarni kamida 10 kalendar kun oldin xabardor qiladi.

**10.5.** Shartnoma bekor qilinganda ma'lumotlar 8.6-bandga muvofiq saqlanadi va yo'q qilinadi.

**10.6.** Shartnomada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

## 11. Ijrochi rekvizitlari

| | |
|---|---|
| Nomi | «Shox-Muxandis» MChJ |
| STIR | 312108030 |
| Yuridik manzil | Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani Nukus ko'chasi 40 A uy |
| Hisob raqami | 20208000107236404001 |
| Bank | "Mikrokreditbank" ATB To'rtko'l tumani filiali |
| MFO | 00433 |
| IFUT (OKED) | 64190 |
| Telefon | +998 90 422 54 54 |
| Elektron pochta | shoxmuhandis@gmail.com |
| Platforma manzili | Meningishxonam.uz |
| Direktor | Saburov Shoxruh Azamat o'g'li |